**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O`RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI**
**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**Ro`yxatga olindi:**

№________ ______

2019-yil ____ __________

**”TASDIQLAYMAN”**
O`quv ishlari bo`yicha prorektor:
prof. Soleyev A.
______________________
2019-yil ___ ___________

# FONETIKA O‘QITISH METODIKASI

# TANLANMA FANINING

# ISHCHI O`QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar soha

Ta’lim sohasi: 110000 – Pedagogika

Ta’lim yo`nalishi: 5120101 – Filologiya va tillarni o`qitish: o`zbek tili

**Samarqand - 2019**

Fanning ishchi o`quv dasturi o`quv, ishchi o`quv reja va o`quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

**Tuzuvchilar:**

**Mirzayev I.K.** – SamDU, "Amaliy tilshunoslik, o`zbek tili va adabiyoti o`qitish metodikasi" kafedrasi professori, f.f.d.

**Jo'rayev T. –** SamDU, "Amaliy tilshunoslik, o`zbek tili va adabiyoti o`qitish metodikasi" kafedrasi o`qituvchisi

**Taqrizchilar:**

**Ne`matov H.N –** Buxoro Davlat o`qituvchilar malaka oshirish instituti professori, f.f.d.

**Ismoilov S.I –** Samarqand Davlat chet tillar instituti dotsenti, f.f.n.

Fanning ishchi o`quv dasturi "Amaliy tilshunoslik, o`zbek tili va adabiyoti o`qitish metodikasi" kafedrasining 2019-yil 29-avgustdagi 1-son yig`ilishida muhokamadan o`tgan va fakultet kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

**Kafedra mudiri: Mirzayev I.K.**

Fanning ishchi o`quv dasturi "O`zbek filologiyasi" fakultet kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2019-yil 30-avgustdagi 1-sonli bayonnoma).

**Fakultet ilmiy kengashi raisi: Eltazarov J.**

**Kelishildi: O`quv uslubiy boshqarma boshlig'i Aliqulov B**

# KIRISH

Ona tili ta'limiga qo'yilgan muhim talablardan biri o'quvchilarni o'z fikrlarini bayon qilish faoliyatiga tayyorlashdir. Fikr esa faqat til yordamida ro'yobga chiqadi. Shuning uchun har bir kishi undan foydalanishni bilishi zarur.

Ona tili o'qitishni foydali maqsadlarga bo'ysundirish, har bir o'rganiladigan grammatik tushuncha, ma'lumot, ta'rif va qoidalarning og'zaki va yozma nutqni rivojlantirishga yordamini nazarda tutishni, amaliy tilshunoslikka e'tiborni kuchaytirishni taqozo etadi. Ona tili ta'limi oldiga qo'yilgan yana bir muhim talab o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishdir.

Kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, til sathlarini o'qitishda duch kelinadigan asosiy muammolar: to'g'ri talaffuz, imloviy savodxonlik, zarur so'z boyligi, til vositalaridan unumli foydalanish malakasi va albatta, mustaqil yoki ijodiy fikrlash ko'nikmalaridir. Sanab o'tilganlarning deyarli hammasi bilan o'quvchilarni qurollantirish, asosan, tilning fonetika bo'limi zimmasidadir. Dastlabki kuzatishlar mazkur bo'limning o'rta maktablarda o'qitilishi kutilgan natijalarni bermayotganligini ko'rsatmoqda. Buning sababi bilan qiziqqanimizda biri o'qituvchi, ikkinchisi fan bo'yicha darsliklardan o'rin olgan ayrim o'quv materiallari bo'lib chiqdi. Ma'lum bo'lishicha, boshqa bo'limlarga qaraganda fonetika bo'limi o'quvchilarda zerikish uyg'otmoqda. Buni o'qituvchilar bilan bo'lgan suhbatlar va o'quvchilar o'rtasida o'tkazilgan so'rov-anketalar tasdiqlaydi. Umumta'lim maktablarida dars berayotgan aksariyat ona tili o'qituvchilari, afsuski, bugungi ona tili ta'limi maqsadi nimaligini, xususan, fonetika o'qitishdan ko'zlangan maqsad nima ekanligini, davlat va jamiyatning ona tili ta'limi oldiga qo'ygan ijtimoiy buyurtmasi nima ekanligi haqida aniq tasavvurga ega emasligi muammoning manbasini ko'rsatib turibdi. Tan olish kerakki, tadrisan va mazmunan yangi, zamon ruhiga mos darslik, qo'llanmalar chop etilib, amaliyotda o'z samarasini bermoqda. Biroq yagona darslik bilan muammoni hal qilib bo'lmaydi. Ba'zan darsliklarda uchraydigan kamchiliklarni to'ldirishga ehtiyoj paydo bo'ladi. Aynan fonetika mavzusini o'qitishda darslikda berilgan o'quv materiallari zarur ko'nikma va malakalarni o'quvchiga berishda yetarli bo'lmayotgani kuzatishlar jarayonida ma'lum bo'ldi. Birgina talaffuz masalasini oldigan bo'lsak, Respublikamizning turli hududlari bilan bog'liq turli tovushlarning talaffuzida muammolar uchraydiki, uni bartaraf qilish uchun darslikdagi ikkita yoki uchta mashq kamlik qiladi.

Bu borada davlatimiz Prezidenti til madaniyatini oshirish borasida hali ko'p ishlar qilishimiz lozimligini ham unutmasligimiz zarurligini, ayniqsa, ba'zi rasmiy muoqotlarda ham adabiy til qoidalariga rioya qilmaslik, faqat ma'lum bir hudud doirasida ishlatiladigan sheva elementlarini qo'shib gapirish holatlari uchrab turishini, bu masalaning hali-hanuz dolzarb bo'lib qolayotganligini qat'iy ta'kidlaydilar. Mazkur masalaning yechimi ham albatta, maktab bilan, ona tili, xususan fonetika o'qitish bilan bevosita bog'liqdir.

Fonetika o'qitishni davlat va jamiyat, qolaversa, zamon talabi darajasiga ko'tarish uchun, avvalo, darslik va qo'llanmalarning mazmun mundarijasini, ulardagi o'quv materiallarini tahlil qilib, bo'sh o'rinlarini to'ldirib, ona tili

darsliklari tarixini o‘rganish asnosida to‘plangan boy tajribalarga asoslanib, millat tafakkuri va millat mafkurasining eng ilg‘or namunalari aks etgan asl darsliklar avlodini yaratish zarur.

## Fanning maqsad va vazifalari

Demokratik jamiyat qurishning eng muhim masalalaridan biri insonning yangicha paydo bo‘layotgan tafakkurini jamiyatning demokratik tamoyillariga tayangan holda rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi lozimligini davr ko‘rsatmoqda. Prezidentimiz I.A. Karimovning tashabbuslari bilan «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi», «Uzluksiz ta’lim tizimi uchun davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqarish va joriy etish to‘g‘risida»gi qarori va boshqa bir qator muhim hujjatlarning qabul qilinishi yuqoridagi maqsadlarni amalga oshirishga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Matbuot va ommaviy axborot vositalarida qayd etilishicha, XXI asr psixologiya, pedagogika, gumanitar, ijtimoiy-siyosiy singari insonshunoslik fanlarida bo‘ladigan yirik ixtiro va yangiliklar asri bo‘lishi kutilmoqda. Buni esa, dunyoning globallashuvi va axborot kommunikatsiyalarining rivojisiz tasavvur etish qiyin, albatta.

Xo‘sh, axborot texnologiyalarining rivoji gumanitar, aniqrog‘i, «Ona tili o‘qitish metodikasi» fani oldiga qanday vazifalarni yuklashi mumkin?

Buning uchun, avvalo, ta’limning hozirgi davrdagi maqsad va vazifalarini belgilamay turib, zamon talabiga mos bo‘lgan ijodiy tafakkur sohibini yetishtirib bo‘lmaydi. Uni amalga oshirish, birinchi navbatda, bo‘lajak o‘qituvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishni talab etadi. Oliy maktabning filologiya yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalarning bu boradagi ko‘nikma va malakalarini shakllantirish «Ona tili va adabiyotni o‘qitish metodikasi» fanlari zimmasiga tushadi. Chunki umumiy o‘rta ta’limdagi o‘qitish jarayonini mantiqiy fikrlash asosida tashkil etish, hozirgi kun muammo va talablari bilan uyg‘unlashib ketgan. Qolaversa, bu talab DTSning asosiy prinsiplariga tayangan holda ish ko‘radi.

Ma’lumki, muhtaram Prezidentimizning «Fidokor» gazetasi muxbiri savollariga bergan javoblarida quyidagi fikrlar bildirilgan edi: «…birinchi galda taraqqiyotimizning har bir yo‘nalishi – jamiyatimizdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy munosabatlarning rivoji haqida maxsus darsliklar, qo‘llanmalar, ommaviy adabiyotlar yaratish zarur».

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ona tili asosiy fan sanalganligi kabi oliy ta’limning mazkur yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalarga «Ona tili o‘qitish metodikasi» asosiy o‘quv fani sifatida o‘tilishi lozim. Chunki filologiya yo‘nalishini tamomlagan yoshlarning 80%idan ortiqrog‘i umumiy o‘rta hamda kasb-hunar ta’limi maskanlarining ona tili va adabiyot fanlari o‘qituvchilari bo‘lib ishlashi aniqdir.

## Fan bo`yicha talabaning malakasiga qo`yiladigan talablar

– Dars jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ish olib borish;
– O‘qitishning texnik vositalaridan unumli foydalanish;
– Dars o‘qitishning noan’anaviy shakllaridan xabardorbo‘lish;
– Yozma ishlar uchun matnlar tayyorlash jarayonida o‘quvchilarning fiziologik holati va qiziqishlarini hisobga olish;
– Tilshunoslik, adabiyotshunoslik, pedagogika, psixologiya singari fanlarga oid yangiliklardan doimo xabardor bo‘lish, fanlararo bog‘lanishni tashkil qilish;
– Ona tili darslarida muammoli vaziyat yaratish usullaridan foydalana bilish;
– O‘qituvchi va talaba orasidagi ikki tomonlama samarali muloqotni tashkil eta bilish;
– O‘quvchining dars davomida mustaqil va erkin faoliyat ko‘rsata olishi uchun imkoniyat yarata olish;
– Tilshunoslikka oid nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish;
– Mavzuga oid asosiy va qo‘shimcha adabiyotlarni tanlay bilish;
– Didaktika va psixologiyaga oid zaruriy bilimlarga ega bo‘lish;
–Tahlil etilayotgan materiallarni bir-biridan ajratish, qiyoslash barobarida ularni sabab va harakat, oqibat va asos shaklida ham qarama-qarshi qo‘ya olish.

## Fanni o`quv rejadagi boshqa fanlar bilan bog`liqligi

“Ona tili ta`limining dolzarb masalalari” tanlanma fani o`quv rejadagi “Hozirgi o`zbek adabiy tili”, “Ona tili o`qitish metodikasi”, “Adabiyot o`qitish metodikasi”, “Pedagogika”, “Psixologiya” kabi fanlar bilan uzviy bog`langan.

## Fanni o`qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalaridan foydalanish

O`quv jarayoni bilan bog`liq ta’lim sifatini belgilovchi holatlar quyidagilar: yuqori ilmiy-pedagogik darajada dars berish, muammoli ma’ruzalar o`qish, darslarni savol-javob tarzida qiziqarli tashkil qilish, ilg`or pedagogik texnologiyalardan va mul’timedia vositalaridan foydalanish, tinglovchilarni undaydigan, o`ylantiradigan muammolarni ular oldiga qo`yish, talabchanlik, tinglovchilar bilan individual ishlash, erkin muloqot yuritishga, ilmiy izlanishga jalb qilish.

“Tanlanma” fani kursini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondoshuvlardan foydalaniladi:

**Shaxsga yo`naltirilgan ta’lim.** Bu ta’lim o`z mohiyatiga ko`ra ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to`laqonli rivojlanishlarini ko`zda tutadi. Bu esa ta’limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma’lum bir ta’lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog`liq o`qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondoshilishni nazarda tutadi.

**Tizimli yondoshuv.** Ta’lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o`zida mujassam etmog`i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo`g`inlarini o`zaro bog`langanligi, yaxlitligi.

**Faoliyatga yo`naltirilgan yondoshuv.** Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirishga, ta’lim oluvchining faoliyatni aktivlashtirish va intensivlashtirish, o`quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo`naltirilgan ta’limni ifodalaydi.

**Dialogik yondoshuv**. Bu yondoshuv o`quv munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o`z-o`zini faollashtirishi va o`z-o`zini ko`rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

**Hamkorlikdagi ta’limni tashkil etish.** Demokratik, tenglik, ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchi faoliyat mazmunini shakllantirishda va erishilgan natijalarni baholashda birgalikda ishlashni joriy etishga e’tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

**Muammoli ta’lim.** Ta’lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish orqali ta’lim oluvchi faoliyatini aktivlashtirish usullaridan biri. Bunda ilmiy bilimni obyektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini, dialektik mushohadani shakllantirish va rivojlantirishni, amaliy faoliyatga ularni ijodiy tarzda qo`llashni mustaqil ijodiy faoliyati ta’minlanadi.

**Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo`llash** - yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o`quv jarayoniga qo`llash.

**O`qitishning usullari va texnikasi**. Ma’ruza (kirish, mavzuga oid, vizuallash), muammoli ta’lim, keys-stadi, pinbord, paradoks va loyihalash usullari, amaliy ishlar.

**O`qitishni tashkil etish shakllari:** dialog, polilog, muloqot hamkorlik va o`zaro o`rganishga asoslangan frontal, kollektiv va guruh.

**O`qitish vositalari:** o`qitishning an’anaviy shakllari (darslik, ma’ruza matni) bilan bir qatorda – kompyuter va axborot texnologiyalari.

**Kommunikasiya usullari:** tinglovchilar bilan operativ teskari aloqaga asoslangan bevosita o`zaro munosabatlar.

**Teskari aloqa usullari va vositalari:** kuzatish, blis-so`rov, oraliq va joriy va yakunlovchi nazorat natijalarini tahlili asosida o`qitish diagnostikasi.

**Boshqarish usullari va vositalari:** o`quv mashg`uloti bosqichlarini belgilab beruvchi texnologik karta ko`rinishidagi o`quv mashg`ulotlarini rejalashtirish, qo`yilgan maqsadga erishishda o`qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg`ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

**Monitoring va baholash:** o`quv mashg`ulotida ham butun kurs davomida ham o`qitishning natijalarini rejali tarzda kuzatib borish. Kurs oxirida test topshiriqlari yoki yozma ish variantlari yordamida tinglovchilarning bilimlari baholanadi.

“Tanlanma” fanini o`qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan foydalaniladi. Ayrim mavzular bo`yicha talabalar bilimini baholash test asosida va kompyuter yordamida bajariladi. “Internet” tarmog`idan, tarqatma materiallar

tayyorlanadi, test tizimi hamda tayanch so`z va iboralar asosida oraliq va yakuniy nazoratlar o`tkaziladi.

**“Tanlanma” fanidan mashg`ulotlarning mavzular va soatlar bo`yicha taqsimlanishi:**

| T/r | Mavzular nomi | Jami soat | Ma’ruza | Amaliy | Mustaqil ta’lim |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Kirish. Amaliy fonetika fanlarinig maqsad va vazifalari | 10 | 4 | 4 | 2 |
| 2. | Fonetika va uning turlari. Fanning boshqa fanlar bilan aloqasi. | 40 | 10 | 10 | 20 |
| 3. | Fonetika va nutq madaniyati | 40 | 10 | 10 | 20 |
| 4. | Adabiy talaffuz – fonetika o`qitishning birlamchi vazifasi | 40 | 10 | 10 | 20 |
| 5. | Umumta`lim maktablarida fonetika o`qitish masalasi | 40 | 10 | 10 | 20 |
| 6. | Oliy va o`rta maxsus ta`lim muassasalarida fonetika o`qitish masalasi | 40 | 10 | 10 | 20 |
| **Jami** | | **210** | **54** | **54** | **102** |

**Asosiy qism: Fanning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi**

Asosiy qismda (ma’ruza) fanni mavzulari mantiqiy ketma-ketlikda keltiriladi. Har bir mavzuning mohiyati asosiy tushunchalar va tezislar orqali ochib beriladi. Bunda mavzu bo`yicha talabalarga DTS asosida yetkazilishi zarur bo`lgan bilim va ko`nikmalar to`la qamrab olinishi kerak. Asosiy qism sifatiga qo`yiladigan talab mavzularning dolzarbligi, ularning ish beruvchilar talablari va ishlab chiqarish ehtiyojlariga mosligi, mamlakatimizda bo`layotgan ijtimoiy-siyosiy va demokratik o`zgarishlar, iqtisodiyotni erkinlashtirish, iqtisodiy-huquqiy va boshqa sohalardagi islohatlarning ustuvor masalalarini qamrab olishi hamda fan va texnologiyalarning so`ngti yutuqlari e’tiborga olinishi tavsiya etiladi.

## Ma’ruza mashg`ulotlari

**Kirish.Amaliy fonetika fanlarinig maqsad va vazifalari.**

Qo`llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim. Bingo, blis, munozara, o`z-o`zini nazorat.*

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; A5; Q1; Q2; Q3; Q4; Q5; Q6; Q7.

**Fonetika va uning turlari. Fanning boshqa fanlar bilan aloqasi.**

Qo`llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim. Pog`ona, qadamba-qadam metodi, Venn diagrammasi, T-sxemasi, o`z-o`zini nazorat.*

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; A5; Q1; Q2; Q3; Q4; Q5; Q6; Q7.

**Fonetika va nutq madaniyati**

Qo`llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim. Blis-so`rov, zig-zag usuli, munozara, BBB, Insert, o`z-o`zini nazorat.*

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; A5; Q1; Q2; Q3; Q4; Q5; Q6; Q7.

**Adabiy talaffuz –fonetika o`qitishning birlamchi vazifasi.**

Qo`llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim, munozara, o`z-o`zini nazorat.*

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; A5; Q1; Q2; Q3; Q4; Q5; Q6; Q7.

**Umumta`lim maktablarida fonetika o`qitish masalasi**. Qo`llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim, o`z-o`zini nazorat.*

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; A5; Q1; Q2; Q3; Q4; Q5; Q6; Q7.

**Oliy va o`rta maxsus ta`lim muassasalarida fonetika o`qitish masalasi.**Qo`llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim, munozara, o`z-o`zini nazorat.*

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; A5; Q1; Q2; Q3; Q4; Q5; Q6; Q7.

### “Tanlanma” fani bo`yicha ma’ruza mashg`ulotining kalendar tematik rejasi

| t/r | Ma’ruza mavzulari | soat |
|---|---|---|
| **I mavzu. Kirish** | | |
| 1.1 | Kirish. Amaliy fonetika fanlarinig maqsad va vazifalari. | 4 |
| **II mavzu.** | | |
| 2.1 | Fonetika va uning turlari. Fanning boshqa fanlar bilan aloqasi. | 10 |
| **III mavzu.** | | |
| 3.1 | Fonetika va nutq madaniyati. | 10 |
| **IV mavzu.** | | |
| 4.1 | Adabiy talaffuz –fonetika o`qitishning birlamchi vazifasi. | 10 |
| **V mavzu.** | | |
| 5.1 | Umumta`lim maktablarida fonetika o`qitish masalasi. | 10 |
| **VI mavzu.** | | |

| | | |
|---|---|---|
| 6.1 | Oliy va o`rta maxsus ta`lim muassasalarida fonetika o`qitish masalasi. | 10 |
| **Jami:** | | **54** |

**Amaliy mashg`ulotlarning tavsiya etiladigan mavzulari**

**O`zbek tilida talaffuzi qiyin unli tovushlar ustida ishlash.**Unli fonemalar talaffuzi ustida ishlash, ularning so`z boshida, o`rtasida va oxirida qanday fonemalar bilan kelishini aniqlash. – ng diftongi masalasi.

Qo`llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim.*

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; A5; Q1; Q2; Q3; Q4; Q5; Q6; Q7.

**Talaffuzi qiyin undosh tovushlar ustida ishlash.** Qo`llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim, shaxsga yo`naltirilgan ta’lim.*

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; A5; Q1; Q2; Q3; Q4; Q5; Q6; Q7.

**Fonetik o`zgarishga uchragan so`zlar talaffuzi ustida ishlash.** So`zning lug`aviy, grammatik ma’nolari va ulararo qiymatni aniqlash ustida ishlash.

Qo`llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim, aqliy hujum.*

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; A5; Q1; Q2; Q3; Q4; Q5; Q6; Q7.

**So`z va mantiqiy urg`uni qo`llash yuzasidan tanlangan matnlar ustida ishlash.** Qo`llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim, keys-stadi.*

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; A5; Q1; Q2; Q3; Q4; Q5; Q6; Q7.

**O`zbek tilida qo`llanayotgan o`zlashma so`zlarning talaffuzi, urg`usi ustida ishlash(qiyosiy).** Qo`llaniladigan ta’lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta’lim, keys-stadi.*

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; A5; Q1; Q2; Q3; Q4; Q5; Q6; Q7.

**Amaliy mashg`ulotlarningkalendar tematik rejasi**

| t/r | Amaliy mashg`ulotlar mavzulari | soat |
|---|---|---|
| **I mavzu.** | | |
| 1.1 | O`zbek tilida talaffuzi qiyin unli tovushlar ustida ishlash. | 4 |
| **II mavzu.** | | |
| 2.1 | Talaffuzi qiyin undosh tovushlar ustida ishlash. | 10 |
| **III mavzu.** | | |
| 3.1 | Fonetik o`zgarishga uchragan so`zlar talaffuzi ustida ishlash. | 10 |
| **IV mavzu.** | | |
| 4.1 | So`z va mantiqiy urg`uni qo`llash yuzasidan tanlangan matnlar ustida ishlash. | 10 |
| **V mavzu.** | | |

| | | |
|---|---|---|
| 5.1 | O`zbek tilida qo`llanayotgan o`zlashma so`zlarning talaffuzi, urg`usi ustida ishlash(Qiyosiy) | 10 |
| **Jami** | | **54** |

## Seminar mashg`ulotlarga tavsiya etiladigan mavzular

**O`zbek tili tovushlar tizimini boshqa tillar tovushlariga qiyoslab o`rganish.**

Qo`llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim.*

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; A5; Q1; Q2; Q3; Q4; Q5; Q6; Q7.

**Fonetikaning o`quvchi, talaba, mutaxasis hayoti va faoliyatidagi o`rni**. Qo`llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim, shaxsga yo`naltirilgan ta'lim.*

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; A5; Q1; Q2; Q3; Q4; Q5; Q6; Q7.

**Adabiy talaffuzning imloviy savodxonlikka ta`siri masalasi.**Qo`llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim, aqliy hujum.*

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; A5; Q1; Q2; Q3; Q4; Q5; Q6; Q7.

**Fonetika nutqiy malakalarni shakllantiruvchi vosita**. Qo`llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim, keys-stadi.*

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; A5; Q1; Q2; Q3; Q4; Q5; Q6; Q7.

**O`zbek tili tovushlar tizimidagi muammolar**. Qo`llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim, keys-stadi.*

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; A5; Q1; Q2; Q3; Q4; Q5; Q6; Q7.

**Amaliy fonetika ning o`rganilishi va unga doir ilmiy maqolalar tahlili.** Qo`llaniladigan ta'lim texnologiyalari: *dialogik yondoshuv, muammoli ta'lim, keys-stadi.*

Adabiyotlar: A1; A2; A3; A4; A5; Q1; Q2; Q3; Q4; Q5; Q6;

## Mustaqil ta'lim tashkil etishning shakli va mazmuni.

"Tanlanma" fani bo`yicha talabaning mustaqil ta'limi shu fanni o`rganish jarayonining tarkibiy qismi bo`lib, uslubiy va axborot resurslari bilan to`la ta'minlangan.

Talabalar auditoriya mashg`ulotlarida professor-o`qituvchilarning ma'ruzasini tinglaydilar, misol va masalalar yechadilar. Auditoriyadan tashqarida talaba darslarga tayyorlanadi, adabiyotlarni konspekt qiladi, uy vazifa sifatida berilgan misol va masalalarni yechadi. Bundan tashqari ayrim mavzularni kengroq o`rganish maqsadida qo`shimcha adabiyotlarni o`qib referatlar tayyorlaydi hamda mavzu bo`yicha testlar yechadi. Mustaqil ta'lim natijalari reyting tizimi asosida baholanadi. Uyga vazifalarni bajarish, qo`shimcha darslik va adabiyotlardan yangi bilimlarni mustaqil o`rganish, kerakli ma'lumotlarni izlash va ularni topish

yo`llarini aniqlash, internet tarmoqlaridan foydalanib ma’lumotlar to`plash va ilmiy izlanishlar olib borish, ilmiy to`garak doirasida yoki mustaqil ravishda ilmiy manbalardan foydalanib ilmiy maqola va ma’ruzalar tayyorlash kabilar talabalarning darsda olgan bilimlarini chuqurlashtiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi. Shuning uchun ham mustaqil ta’limsiz o`quv faoliyati samarali bo`lishi mumkin emas.

Uy vazifalarini tekshirish va baholash amaliy mashg`ulot olib boruvchi o`qituvchi tomonidan, konspektlarni va mavzuni o`zlashtirish darajasini tekshirish va baholash esa ma’ruza darslarini olib boruvchi o`qituvchi tomonidan har darsda amalga oshiriladi.

“Tanlanma” fanidan mustaqil ish majmuasi fanning barcha mavzularini qamrab olgan va quyidagi mavzular ko`rinishida shakllantirilgan.

**Talabalar mustaqil ta’limining mazmuni va hajmi**

| t/r | Mustaqil ta’lim mavzulari | Berilgan topshiriqlar | Bajarish muddati | Hajmi (soatda) |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Unli tovushlar, ularning lug`at va matnda namoyon bo`lish shakllari. | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 1, 2-haftalar | 4 |
| 2. | Undosh tovushlar, ularning lug`at va matnda namoyon bo`lish shakllari. | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 3-hafta | 4 |
| 3. | O`zbek va rus tillarida urg`u | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 4-hafta | 8 |
| 4. | “Lotin alifbosiga asoslangan yangi o`zbek yozuvi to`g`risida”gi Qonuni va shu alifboning milliy o`zbek tili talaffuziga mosligi. | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 5-hafta | 4 |
| 5. | Imlo qoidalari va tinish belgilari masalasi. | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 6-hafta | 8 |
| 6. | Tinish belgilari va ohang | Adabiyotlardan | 7-hafta | 8 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | | |
| 7. | So`z urg`usi | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 8-hafta | 10 |
| 8. | Adabiy til va shevalarning o`zaro munosabati. | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 9-hafta | 4 |
| 9. | Talaffuz va ohang | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 10-hafta | 4 |
| 10. | Gap urg`usi va ohang | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 11-hafta | 6 |
| 11. | Bo`g`in va ohang | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 12-hafta | 10 |
| 12. | Talaffuz va imlo | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 13-hafta | 6 |
| 13. | Fonema va tovush | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 14-hafta | 6 |
| 14. | Imlo bilan bog`liq fonetik o`zgarishlar | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni | 15-hafta | 10 |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | bajarish | | |
| 15. | Talaffuz bilan bog`liq tovush o`zgarishlar. | Adabiyotlardan konspekt qilish. Individual topshiriqlarni bajarish | 16-hafta | 10 |
| **Jami** | | | | **102** |

## Dasturning informatsion uslubiy ta'minoti

Mazkur fanni o`qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini qo`llash nazarda tutilgan:

## "Tanlanma" fanidan talabalar bilimini reyting tizimi asosida baholash mezoni.

"Tanlanma" fani bo`yicha reyting jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma'lumotlar fan bo`yicha birinchi mashg`ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Fan bo`yicha talabalarning bilim saviyasi va o`zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o`tkaziladi:

- **joriy nazorat (JN)** – talabaning fan mavzulari bo`yicha bilim va amaliy ko`nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy mashg`ulotlarda og`zaki so`rov, suhbat, nazorat ishi, kollekvium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o`tkazilishi mumkin;
- **oraliq nazorat (ON)** – semestr davomida o`quv dasturining tegishli (fanlarning bir necha mavzularini o`z ichiga olgan) bo`limi tugallangandan keyin talabaning nazariy bilim va amaliy ko`nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazorat bir semestrda bir marta o`tkaziladi va shakli (yozma, og`zaki, test va hokazo) o`quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;
- **yakuniy nazorat (YaN)** – semestr yakunida muayyan fan bo`yicha nazariy bilim va amaliy ko`nikmalarni talabalar tomonidan o`zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan "Yozma ish" shaklida o`tkaziladi.

**ON** o`tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o`rganib boriladi va uni o`tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **ON** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **ON** qayta o`tkaziladi.

Oliy ta'lim muassasasi rahbarining buyrug`i bilan ichki nazorat va monitoring bo`limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida YaN ni o`tkazish jarayoni muntazam ravishda o`rganib boriladi va uni o`tkazish tartiblari buzilgan hollarda, **YaN** natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda **YaN** qayta o`tkaziladi.

Talabaning bilim saviyasi, ko`nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning fan bo`yicha o`zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

"Tanlanma" fani bo`yicha talabalarning semestr davomidagi o`zlashtirish ko`rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi.

Ushbu 100 ball baholash turlari bo`yicha quyidagicha taqsimlanadi:

Ya.N. -30 ball, qolgan 70 ball esa J.N.-35 ball va O.N.-35 ball qilib taqsimlanadi.

| Ball | Baho | Talabalarning bilim darajasi |
|---|---|---|
| 86-100 | A'lo | Xulosa va qaror qabul qilish. Ijodiy fikrlay olish. Mustaqil mushohada yurita olish. Olgan bilimlarini amalda qo`llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo`lish. |
| 71-85 | Yaxshi | Mustaqil mushohada qilish. Olgan bilimlarini amalda qo`llay olish. Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish. Tasavvurga ega bo`lish. |
| 55-70 | Qoniqarli | Mohiyatini tushuntirish. Bilish, aytib berish Tasavvurga ega bo`lish. |
| 0-54 | Qoniqarsiz | Aniq tasavvurga ega bo`lmaslik. Bilmaslik. |

- Fan bo`yicha saralash bali 55 ballni tashkil etadi. Talabaning saralash balidan past bo`lgan o`zlashtirishi reyting daftarchasida qayd etilmaydi.
- Talabalarning o`quv fani bo`yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.
- Talabaning fan bo`yicha reytingi quyidagicha aniqlanadi: $R = \frac{V \bullet O`}{100}$ bu yerda: *V*- semestrda fanga ajratilgan umumiy o`quv yuklamasi (soatlarda); *O*` -fan bo`yicha o`zlashtirish darajasi (ballarda).
- Fan bo`yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy ballning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to`plagan talaba yakuniy nazoratga kiritilmaydi.
- Joriy **JN** va oraliq **ON** turlari bo`yicha 55 bal va undan yuqori balni to`plagan talaba fanni o`zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo`yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo`l qo`yiladi.

- Talabaning semestr davomida fan bo`yicha to`plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to`plagan ballari yig`indisiga teng.
- **ON** va **YaN** turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o`tkaziladi. **YaN** semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o`tkaziladi.
- **JN** va **ON** nazoratlarda saralash balidan kam ball to`plagan va uzrli sabablarga ko`ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so`nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun esa yakuniy nazoratgacha bo`lgan muddat beriladi.
- Talabaning semestrda **JN** va **ON** turlari bo`yicha to`plagan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo`lsa yoki semestr yakuniy joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo`yicha to`plagan ballari yig`indisi 55 baldan kam bo`lsa, u akademik qarzdor deb hisoblanadi.
- Talaba nazorat natijalaridan norozi bo`lsa, fan bo`yicha nazorat turi natijalari e’lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko`ra rektor buyrug`i bilan 3 (uch) a’zodan kam bo`lmagan tarkibda apellyasiya komissiyasi tashkil etiladi.
- Apellyatsiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko`rib chiqib, shu kunning o`zida xulosasini bildiradi.
- Baholashning o`rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o`tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra muduri, o`quv-uslubiy boshqarma hamda ichki nazorat va monitoring bo`limi tomonidan nazorat qilinadi.

**Talabalar ON dan to`playdigan ballarning mezonlari**

| **t/r** | **Ko`rsatkichlar** | **ON ballari** | |
|---|---|---|---|
| | | **maks** | **1-ON** |
| 1 | Darslarga qatnashganlik darajasi. Ma’ruza darslaridagi faolligi, konspekt daftarlarining yuritilishi va to`liqligi. | 15 | 0-15 |
| 2 | Talabalarning mustaqil ta’lim topshiriqlarini o`z vaqtida va sifatli bajarishi va o`zlashtirish. | 10 | 0-10 |
| 3 | Og`zaki savol-javoblar, kollokvium va boshqa nazorat turlari natijalari bo`yicha | 10 | 0-10 |
| | **Jami ON ballari** | **35** | **0-35** |

**Talabalar JN dan to`playdigan ballarning mezonlari**

| t/r | Ko`rsatkichlar | JN ballari | | |
|---|---|---|---|---|
| | | maks | 1-JN | 2-JN |
| 1 | Darslarga qatnashganlik va o`zlashtirishi darajasi. Amaliy mashg`ulotlardagi faolligi, amaliy mashg`ulot daftarlarining yuritilishi va holati | 15 | 0-7 | 0-8 |
| 2 | Mustaqil ta'lim topshiriqlarining o`z vaqtida va sifatli bajarilishi. Mavzular bo`yicha uy vazifalarini bajarilish va o`zlashtirishi darajasi. | 10 | 0-5 | 0-5 |
| 3 | Yozma nazorat ishi yoki test savollariga berilgan javoblar | 10 | 0-5 | 0-5 |
| | **Jami JN ballari** | **35** | **0-17** | **0-18** |

Yakuniy nazorat "Yozma ish" shaklida belgilangan va u 30 ballik "Yozma ish" variantlari asosida o`tkaziladi.

**Yakuniy nazoratda "Yozma ish"larni baholash mezoni**

Yakuniy nazorat "Yozma ish" shaklida amalga oshirilganda, sinov ko`p variantli usulda o`tkaziladi. Har bir variant 2 ta nazariy savol va 4 ta amaliy topshiriqdan iborat. Nazariy savollar fan bo`yicha tayanch so`z va iboralar asosida tuzilgan bo`lib, fanning barcha mavzularini o`z ichiga qamrab olgan.

Har bir nazariy savolga yozilgan javoblar bo`yicha o`zlashtirish ko`rsatkichi 0-3 ball oralig`ida baholanadi. Amaliy topshiriq esa 0-6 ball oralig`ida baholanadi. Talaba maksimal 30 ball to`plashi mumkin.

Yozma sinov bo`yicha umumiy o`zlashtirish ko`rsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun yozilgan javoblarga qo`yilgan o`zlashtirish ballari qo`shiladi va yig`indi talabaning yakuniy nazorat bo`yicha o`zlashtirish bali hisoblanadi.

**Tavsiya etilgan adabiyotlar ro`yxati**

**Asosiy adabiyotlar**


1. Каримов. И. А., Баркамол авлод орзуси.–Т.,1999.
2. Каримов И. А. Юксак маънавият–енгилмас куч. –Т., 2008.
3. Каримов И. А. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. –Т.: Ўзбекистон, 1998, 4-19- б.
4. Асқарова М., Қосимова К. . Ўзбек тили дарслиги: 5-синф учун.–17-нашр.–Т.: Ўқитувчи, 1992. –192 б.
5. Боровков А.К., Ғуломов А., Маърупов З., Шермуҳаммедов Т. «Ўзбек тили грамматикаси» I қисм. Фонетика ва морфология. Етти йиллик ва ўрта мактабларнинг 5-6 синфлари учун дарслик.–Т:. Ўздавнашр, 1949 227– б.

## Qo'shimcha adabiyotlar


1. Боровков А., Ғуломов А., Маърупов З., Шермуҳаммедов Т. «Ўзбек тили грамматикаси». Етти йиллик ва ўрта мактабларнинг 5-6-синфлари учун дарслик. I қисм. Фонетика ва морфология. –Т:. Ўздавнашр, 1946 – 227б.
2. Боровков А., Маърупов З., Шермуҳаммедов Т. Ўзбек тили грамматикаси. I қисм. Морфология. IX нашр.Т:. Ўз.СССРДав ўқпеддавнашр, 1951.
3. Боровков А., Маърупов З., Абдуллаев Й., Шермуҳаммедов Т. 5-6 синфлар учун Ўзбек тили дарслиги. I қисм. Фонетика ва морфология.– Т:. Ўқувпеддавнашр, 1957.
4. Боровков А., Маърупов З., Шермуҳаммедов Т. Ўзбек тили грамматикаси. I қисм. Морфология. XIV нашр. –Т:. Ўз.СССРДав ўқпеддавнашр, 1956.
5. Боровков А., Маърупов З., Шермуҳаммедов Т. Ўзбек тили грамматикаси. I қисм. Морфология. XII нашр.–Т:. Ўз.СССРДав ўқпеддавнашр, 1954.
6. Боровков А., Маърупов З. Абдуллаев Й., Шермуҳаммедов Т. 6-7 синфлар учун Ўзбек тили дарслиги. II қисм. Синтаксис. –Т:. Ўзўқув педдавнашр, 1958.
7. Шамс М. Ўзбек тили дарслиги. III қисм. Бошланғич мактаблар учун.– Т:. Ўздавнашр, 1945.
8. Шамс М., Содиқов Т. Ўзбек тили дарслиги. IV қисм. Б ошланғич мактаблар учун.–Т:. Ўздавнашр, 1948.
9. Шамс М., Содиқов Т. Бошланғич мактабларнинг 4- синфлари учун Ўзбек тили дарслиги. –Т:. Ўқувпеддавнашр, 1956.
10. Ғуломов А., Маърупов З., Шермуҳаммедов Т. Ўзбек тили грамматикаси. II қисм. Синтаксис. 6-7 синфлар учун дарслик. –Т:. Ўздавнашр, 1949.
11. Шамс М., Содиқов Т. Бошланғич мактабларнинг 4- синфлари учун Ўзбек тили дарслиги. –Т:. Ўқувпеддавнашр, 1956.
12. Асқарова М., Қосимова К. Ўзбек тили дарслиги: 5-синф учун.–17-нашр.–Т.: Ўқитувчи,1992.–192 б.
13. 18. Ne`matov H. va boshqalar. Ona tili / 5- sinflar uchun / darslik. –T.: O`qituvchi, 2000 –144 б.
14. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Qodirov V. Она тили. Умумий ўрта таълим мактабларинг 5-синфи учун дарслик–Т.: Маънавият, 2007–224 б.
15. Ne`matov H., G`ulomov A., Qodirov M., Abduraimova M. 5-sinflar uchun darslik.–Тошкент, Ўқитувчи, 2002.
16. Ramazan Q., Qajjumij X.Grammatik. Sarf. Orta maktablar ucun darslik. Iqism.–T:.Oquvpeddavnasr.– 1937.–149 b.

17.ҒуломовА., НеъматовҲ. Она тили таълими мазмуни: Она тили
18.ўқитувчилари учун қўлланма. – Т.: Ўқитувчи, 1995.
19.Неъматов Ҳ. Ўзбек тили тарихий фонетикаси.–Т., 1987.
20.Фитрат Абдурауф. Танланган асарлар. IV жилд. –Т., 2006.
21.Йўлдошева Д. Кадрлар тайёрлаш миллий дастуриталаблари
22.асосида таълим мақсадини белгилашнинг дидактик асослари.–Т.:
23.Фан,2006.
24.Розентал.Д.Е., Теленкова. Н.А. Словар лингвистических терминов. Способие для учителей.–М., 1972.
25.Ғуломов.А.Ғ. ЎзСЭ.–Т.,1981. 394-б
26.Бонк Н. А., Котий Г. А., Лукянова Н. А. Учебник английского языка. – М.: Деконт,1999.
27.Щерба Л.В. Фонетика французского языка. –М.: 1948, стр 190–199.
28.Кошғарий М. Девону луғотит турк. I,II, III. –Т.: 1976.
29.Баркамол авлод орзуси («кадрлар тайёрлаш миллий дастури»ни амалга ошириш борасидаги публисистик мулоҳазалар) – Т.: Шарқ нашриёт матбаа консерни, 1998-33 б.
30.Умумий ўрта таълимнинг Давлат таълим стандартлари ва ўқув дастури.–Т.: "Шарқ" нашрёт-матбаа концерни, 1999.
31.Hamroyev G`.Umumta`lim maktablari ona tili darsliklarining mazmun-mundarija tahlili.Ilmiy maqolalar to`plami.–Samarqand, SamDU nashri, 2006.
32.Hamroyev G`.Til sathlaridagi uzviylikning mashqlardagi ifodasi.Filologiya -8.ilmiy maqolalar to`plami. –Samarqand, SamDU nashri, 2007.
33.XX asrning 40-50-yillarida o`rta maktablarning o`zbek tili darsliklarida unlilar talqini. Magistrlarning V ilmiy konferensiyasi materiallari.–Samarqand: SamDU nashri, 2005.
34.Fonetikaning huquqshunoslik sohasiga bog`liqligiga doir mulohazalar. Filologiya -8. Ilmiy maqolalar to`plami. –Samarqand, SamDU nashri, 2007.
35.Umumiy o`rta ta`lim maktablarining "Ona tili" darsliklari tarixiga bir nazar. O`zbek adabiyotshunosligi va tilshunosligining ba`zi muammolari. Ilmiy maqollar to`plami.–Samarqand, SamDU nashri, 2008.
36.Ona tili darsliklarida ba`zi tilshunoslik terminlarining berilishi haqida ayrim mulohazalar.Filologiya -10.I lmiy maqolalar to`plami. –Samarqand, SamDU nashri, 2010.
37.Жалолов Ж. Чет тили ўқитиш методикаси. Чет тиллар олий ўқув юртлари талабалари учун дарслик.– Ўқитувчи, 1996.– 368-б.
38.Тўхлиев Б., Шамсиева М., Зиёдова Т. Ўзбек тили ўқитиш методикаси. –Тошкент, 2010, 184 б.
39.Неъматов Ҳ. Ўзбек тили тарихий фонетикаси. –Т.: Ўқитувчи, 1992 -92. б.
40.Ғуломов А. Она тили ўқитиш принциплари ва методлари. –Т.: Ўқитувчи, 1992.

**Internet va ZiyoNet saytlari**

1. http://www.google.uz./;
2. http://www.msu.ru/;
3. http://www.nlr.ru/;